

UMUMTA'LIM O'RTA MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA MUSIQIY TARBIYA BERISH AHAMIYATI

Hasanov Siroj Saidovich

Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1- bosqich magistranti

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

BuxDPI "Musiqi va tasviriy san'at" kafedrası dotsenti(PhD)

Annotassiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqiy tarbiya, ta'lim, o'quvchilarni badiiy-estetik didini yuksaltirish va ularni har tomonlama rivojlantirib, komil inson qilib tarbiyalash haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch iboralar: *musiqa, san'at, ta'lim, tarbiya, odob, axloq, xulq-atvor, estetika, axborot texnologiya, ommaviy madaniyat, tarbiyaviy jarayon, inson kamoloti.*

Аннотация: *В статье рассматриваются музыкальное воспитание школьников сегодняшнего дня. Обсуждаются развитие личности у младших школьников, целенаправленные педагогические процессы формирования и интеграционных нравственных качеств. Всестороннее улучшение средних школ.*

Ключевые слова: *музыка, воспитание, культура, песня, чувство, интеллект, искусство, литература, ребёнок, развитие.*

Komil insonni musiqiy tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayoni - musiqiy pedagogik faoliyatning uzluksiz jarayoni bo'lib, axborot texnologiyaning so'nggi namunalari doirasida amalga oshiriladigan hamda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan tashkiliy faoliyatdan iborat. Bu faoliyatda musiqa o'qituvchi musiqiy tarbiyaviy jarayonning asosiy xususiyatlarini bilishi kerak.

Ma'lumki, inson kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ularning asosida yosh avlodga oila va umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi mujassamlashgan. Binobarin, o'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari - aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyalar bilan qatorda musiqiy tarbiyani tashkil etishga ham yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa ta'lim-tarbiyadagi eng muhim vazifalardan biridir. Hech kimga sir emaski, bugungi tezkor davrga hamohang ravishda inson dunyoqarashi, tafakkuri, tarbiyasi ham o'zgarib bormoqda. Biroq fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuviga qanchalik samarali ta'sir etmasin, yoshlarni komil inson etib tarbiyalash, ularga jahon andozalari darajasida ta'lim berish aslo mazmun-mohiyatini yo'qotgani yo'q. Fikrimizcha, bu borada chinakam musiqa namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirib borish yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijobiy natijalarni beradi. Zotan, musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni

tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi».

Musiqa tarbiyaning tizimliliği esa tarbiyaviy jarayonda umumiylikni tashkil etadi, chunki musiqiy tarbiyaviy jarayonlar bir nechta tizimlarning turli xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, musiqa tarbiyaviy jarayonlar bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma - ket almashinuvidir. Musiqiy tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda ko`rib chiqish, musiqa tizim va jarayonning tuzilmaviy xususiyatlarini, shunidek, ular o`rtasidagi funktsional aloqalarning ajratib ko`rsatilishini ifodalaydi. Musiqa o`qituvchi uchun har bir musiqiy tarbiyaviy uslubning o`ziga xos xususiyatini, mohiyatini, birining boshqasiga ta`siri natijasida o`zgarishini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazarimizda, o`quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda musiqiy tarbiyani avvalo, oilada tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bola shaxsini shakllantirishda va rivojlantirishda oiladagi va maktabdagi muhitning ta`siri juda katta bo`lib, boladagi eng muhim individual xususiyatlar oiladagi va umumta`lim dargohidagi mavjud ijtimoiy psixologik muhit ta`sirida shakllanadi. Bunda ota-ona, oila a`zolari o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi o`zaro munosabat, san`at, madaniyatga bo`lgan munosabatlarni ham qayd etish joiz.

Ma`lumki, yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi, turli voqea-hodisalar, urf-odatlar, san`at, madaniyatga oid taassurotlari ko`pincha ijobiy tarzda kechadi. Oiladagi birgalikda televizor ko`rish, konsert tomosha qilish, teatr, konsert tomoshalariga borish, o`z taassurotlarini o`rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o`stirib, hayotiy voqea-hodisalarni aks ettiruvchi badiiy adabiyot, san`at musiqani mohiyatini tushinishga, badiiy va g`oyaviy idrok etishga olib keladi.

Ma`lumki, tarbiya inson ongi, his-tuyg`ulari, tasavvuri, e`tiqodi, dunyoqarashi, xatti-harakatlari va xulq-atvoriga doimo ijobiy ta`sir o`tkazib kelgan. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, musiqiy tarbiya go`zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik va kulfatni anglashga ham o`rgatadi. Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqin bo`lgani uchun musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg`ularni aks ettiradi. Musiqiy tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go`zal jihatlarini ko`ra bilishnigina emas, balki ichki go`zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go`zallikni qadriga etishga undaydi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo`ladi. E`tibor berib qaraydigan bo`lsak, ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug`orilgan bo`lib, ularda hayot va o`lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Ko`pchilik yaxshi biladiki, ertaklarda qahramon musiqa orqali ulkan dev yoki ilonni sehrlab, uning changalidan o`zi yoki sevgan qizini xalos etadi. Chuqurroq nazar tashlaydigan bo`lsak, buning zamirida musiqaning ko`ngilni ezgulikka undovchi san`at ekani o`z aksini topgan. Shu ma`noda, o`sib kelayotgan avlod uchun musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi. Keyinchalik esa badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi. U o`ta o`ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo`lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir. Albatta, musiqa shaxsni shakllantirish, uning ijobiy fazilatlarining yo`nalishlarini o`z-o`zidan belgilab bermaydi. Zotan, tarbiyaviy ta`sirning eng muhim jihatlarini musiqiy asarning g`oyaviy mazmuniga bog`liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Musiqiy-estetik tarbiyaning o`ziga xos xususiyati shundaki, u shaxs sifatida

shakllanayotgan bolalarning hissiyoti va fikrlarini takomillashtiradi. Shu bois bolalar tinglaydigan yoki ijro etadigan musiqa asarlari o'z xarakteri, janri, takror bayon qilish usullariga ko'ra har xildir va ular o'rtasidagi aloqa o'xshashligi va farqi, muvofiq va zidligiga ko'ra o'rganiladi. Qayd etish joizki, inson shaxsining har tomonlama kamol topishi aqliy, axloqiy estetik va jismoniy tarbiyaning uzviy aloqasi tufayli ro'yobga chiqadi. O'z navbatida g'oyaviy-axloqiy ta'sirini amalga oshirishga to'g'ri ishlab chiqilgan hamda bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq tanlangan repertuar samarali yordam beradi.

Musiqa mashg'ulotlarida bilish va aqliy faoliyatlar ham faollashgani bois odamlar musiqani diqqat berib tinglash barobarida ko'plab ma'lumotlarni bilib oladi. Biroq bunda ular musiqaning eng umumiy xususiyatlaridan eng yorqin obrazlarnigina idrok etadilar. Biroq bu jarayonda tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qo'yilgan bo'lsa ham emotsional munosabat o'z ahamiyatini yuqotmaydi. Bu aqliy harakatlar inson hissiyoti va kechinmalari doirasini boyitadi hamda kengaytiradi.

Musiqa san'at sifatida ijtimoiy ong shakli bo'lib, u kishining his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga voqelik va davr ruhini ham o'zida aks ettiradi. Mashhur polyak bastkori K.Shimanovskiy «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» sarlavhali maqolasida musiqaning tabiiy kuch-qudrati haqida fikr yuritarkan, uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda – yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini — kerakli ishga yo'naltirgan holda, tezoqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish zarurligini e'tirof etgan. Musiqaning insonga ta'siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o'rni keng qamrovli muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik musiqa fanining o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Zero, kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va qadratlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda o'rta maktablarda musiqa tarbiyasi, o'quvchi shaxsiyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan san'at hisoblanadi. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib umrbod musiqadan zavq oladi va cheksiz ma'naviy kuch-qudratga ega bo'ladi. Shu sababli musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga, ularni qadrlashga o'rgatadi, insonda yuksak va ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu jarayonda shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning individual ifodasi, ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar kombinatsiyasi, inson ijtimoiyligi shakli ekanini nazarda tutadigan bo'lsak, bu borada musiqaning ahamiyati yana bir bor oydinlashadi va musiqiy ta'lim tizimida yangicha yondashuv borasidagi izlanishlarimiz zamonaviy axborot - pedagogik texnologiyalarini joriy qilish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Bu metodikadan foydalanish musiqa o'quv - tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi, hamda shaxsni musiqiy tomondan tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. F. Nurullayev. "Musiqa ta'limida Buxoro folklor qoshiqlarini orgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari"- (PhD) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori diss.2021y.

2. Madrimov V.X. Ўқувчиларга эстетик тарбия беришда ўзбек мусиқа фольклорининг ахамияти- Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари 2020 йил 6 ноябрь. ВухDU-2020.
3. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
4. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
5. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
6. Nurullayev F.G. [FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS](#). Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
7. Nurullayev F.G. [METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION](#). Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
8. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-3, ISSUE-4, ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
10. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига кўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Вухоро. Б.175-180.
11. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
12. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
13. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
14. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
15. Nurullayev F.G. [FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS](#). Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
16. Nurullayev F.G. The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May 2022.

17. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
18. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
19. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// О'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
20. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
21. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
22. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
23. Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
24. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
25. **Nurillaev Farrukh Gaybullaevich-** The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
26. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.
27. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
28. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, J-2022
29. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development, volume 22,December2023,ISSN(E):2751-1731.